



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

QO'QON - QADIMIY ME'MORIY OBIDALARGA BOY SHAHAR

Abduhamidov Doniyorek Yodgorxoja o'g'li,

Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

E-mail: doniyorbekabdulhamidov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada yurtimizning qadimiy va navqiron shaharlaridan biri — Qo'q'on — shahri tarixi va qadimiy arxitektura yodgorliklari to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: *Farg'ona, Qo'qon xonligi, poytaxt, Xudoyorxon o'rdasi, Modarixon maqbarasi, Said Ahmadxo'ja madrasasi, Kamol qozi madrasasi, Daxmai Shoxon ansambli, Norbo'tabiy madrasasi, Hokimoyim madrasasi.*

Farg'ona — Ustrushona viloyatining shimoli-sharqida. Sirdaryoning yuqori havzasida joylashgan tarixiy viloyat. Hozirgi kunda O'zbekistonning Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlariga, Qirg'izistonning O'sh va Jalolobod, Tojikistonning Xo'jand viloyatlari hududiga to'g'ri keladi. Farg'ona dastlab tarixchi Gerodotning "Tarix" asarida "parikaniylar yurti" nomi ostida eslatiladi. Farg'ona so'zi sug'd manbalarida "Fraganik" shaklida yozilib, "Tog'lar orasidagi vodiy, atrofi berk soylik" ma'nosini anglatadi. Xitoy manbalarida "Dayuan" ya'ni "Davan" deb yuritilgan. Dayuan ham xitoy tilida "tog'lar orasidagi vodiy" ma'nosini beradi. Farg'ona tarixiy hududida tashkil topgan ilk davlat birlashmasi Davan davlati bo'lib, u miloddan avvalgi III asrdan milodiy II asrlar oralig'iga qadar mavjud bo'lgan. Farg'ona so'zining kelib chiqishi to'g'risida turli xil fikrlar mavjud bo'lib. Olimlar "Farg'ona" atamasining bundan o'n ikki asr ilgari sug'd yozuvlarida "Parg'ana", "Prag'ana" shakllarida yozilganligini hamda hind-sanskrit tilida "kichik viloyat"; fors tillarida "tog' oralig'idagi vodiy", "atrofi berk soylik" degan ma'nolarga ega bo'lganligini ta'kidlaydilar.

Farg'ona vodiysining go'zal tabiati, yerosti boyliklari, xushhavo iqlimi tufayli "Markaziy Osiyoning g'ahari", deb ataydilar. Atroflari Tyan-Shan va Hisor-Oloy tog'lari bilan o'ralgan vodiy g'arb tomondagina Sirdaryoga o'z darvozasini ochgan. Farg'ona vodiysi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatida har doim muhim rol o'ynagan.

Farg'ona vodiysida Andijon, O'sh, Marg'ilon, Namangan, Qo'qon, Xo'jand kabi qadimiy shaharlar mavjud. Bu shaharlar orasida Qo'qon shahri o'ziga xos ahamiyatga ega.

Qo'qon - O'zbekistonning yirik shaharlaridan biri. Farg'ona viloyati, So'x daryosi etaklarida joylashgan. Qo'qon - Xovokand shahri haqidagi dastlabki yozma manbalar X asrga tegishli yilnomalarda shahar Buyuk Ipak yo'lida joylashganligi va u o'z qo'l san'ati bilan mashhur bo'lganligi qayd etilgan.

1740-1876-yillarda Qo'qon xonligi poytaxti. Shaharda XVIII-XIX asrlarga oid me'moriy yodgorliklar (Madrasai Mir, 1799-yil; Jome masjidi, 1816-yil; Modarixon maqbarasi, 1825-yil; Daxmai Shoxon ansambli, 1825-yil; Komol Qozi madrasasi, 1827-yil; Sohibzoda Miyon Hazrat madrasasi, 1860-yil; Xudoyorxon o'rdasi, 1873- yil) kabi diqqatga sazovor ob'ektlar joylashgan.

Norbo'tabiy madrasasi (Madrasai Mir) - Qo'qondagi me'moriy yodgorlik (XVIII asr oxiri). Qo'qon xoni Norbo'tabiy hukmronligi davrida qurilgan. Xalq orasida Madrasai Mir nomi bilan ham yuritiladi. Norbo'tabiy madrasasi Chorsu maydoni yaqinida qurilgan. Bir qavatli, hovlili, to'g'ri to'rtburchak tarhli (52x72 m), 4 burchagiga minora-guldastalar ishlangan. Hovli (38x38 m) atrofiga qator ravoqli xujralar joylashgan. Peshtog'i shim.ga qaragan. Miyonsaroyning 2 ta-rafida peshtoq bo'ylab tutashgan gum-bazli masjid va 12 ta derazali (panjaralar o'rnatilgan) darsxona mavjud. Norbo'tabiy madrasasi pishiq g'ishtdan qurilgan. Xonalar ichi ganchsuvoq qilingan. Masjidning gumbaz osti sharafasi va mexrobining yulduzsimon bezaklari serhasham ko'rinadi. Eshiklari girih naqshlar bilan bezatilgan, ichki qismida esa o'ymakori islmiy naqsh qo'llanilgan. Norbo'tabiy madrasasining tashqi ko'rinishi Buxoro me'morlik maktabi uslubiga xosdir.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Norbo'tabiy madrasasi hijriy 1213, milodiy 1798-yilda Qo'qon hukmdori Norbo'tabiy ibn Abdurrahmonxon tomonidan qurdirilgan. Sobiq Buljor, hozirgi Yangi Chorsu maydonida joylashgan. Norbo'tabiyga "amir-al muslimiyn" unvoni berilgan. Shuning uchun madrasa "Madrasa-i amir-al muslimiyn" deb nomlangan. Xalq talaffuzida har qanday nomni ixchamlashtirishga intilish bor. Shu bois madrasa nomi talaffuzda ixchamlashib, "Madrasa-i Mir" degan shaklga keldi. Madrasa nomi rasmiy doiralar va hujjatlarda "Madrasa-i Mir" deb nomlangan bo'lsada, xalq ichida "Norbo'tabiy madrasasi" tarzida yuritib kelinmoqda. Bosh mudarrislikka Muhammad Ya'qub Oxund binni Muhammad Xoja Eshoni Sadr hazratlari tayinlanganlar. Hujralar soni – 50; tolibi ilmlar adadi – 114; mudarrislar adadi – 12 nafar.

Dahmai-Shaxon maqbarasi - uch qismdan iborat bo'lib, u shaklidagi kirish qismga ega gumbazli bino, janoza namozlarini ado etish uchun mo'ljallangan ikki ustunli ayvonli masjid va oilaviy qabristondan iborat. Sag'ana 9,4 metrga 11,7 metrni joyni egallaydi. Sodda uslubda qad roslagan sag'ana va past gumbaz binoga qat'iylik bag'ishlab turadi. Maqbarani bezatishda badiiy vosita sifatida rang barang koshinlardan foydalanilgan. Keng kirish qismi atrofi tasma shaklida moviy fonda koshin va siyohrang qalampir shaklidagi naqshlar bilan uyg'unlashtirib bezatilgan. O'rta pastki qism moviy, yashil va oq rangli kichik g'ishtlardan iborat sakkiz qirrali yulduzlar, tepa qism esa Farg'ona uchun an'anaviy ust kiyim tayyorlash uchun ishlatiladigan rang barang mato ko'rinishidagi tishli chiziqlar bilan bezatilgan.

"Hazira Modarixon" maqbarasiga hukmron oila ayollari dafn etilgan. Hozirgi kunga qadar majmuaning faqatgina gumbazli old qismi va ikkita qirrali minora qismlari (7,5 ga 8,7 m) saqlanib qolgan. Dahmai-Shaxon majmuasidan farqli ravishda bu majmua kirish qismida nozik naqshlardan foydalanilgan, naqshli koshin va ganchli stalaktitlar bilan to'ldirilgan geometrik tasvirlar nozik, yupqa gulli naqshlar bilan uyg'unlashtirilgan. Kirish qismining o'ng tomonidagi olti qirrali koshinlardan birida sirli me'mor maqbara qurib bitkazilgan sana 1825-yilni qayd qilib qo'ygan. Maqbara gumbazi ichki qismi takrorlanmas spiral-qovurg'asimon ganchli tasvirlar bilan bezatilgan. Pastqam kirish joyi va nozik gulli koshin naqshlar bilan bezatilgan asosiy yo'lak binoni chiroyli va mutanosibligini ta'minlab turadi. Asosiy kirish qismidagi egilgan burchak shipi oppoq ganchli stalaktitlar bilan bezatilgan. Old tomonda qad roslagan ikkita minora ko'z oldingizga bevosita Samarqanddagi Bibixonim masjidini keltiradi, go'yoki ikkala obida xam buyuk ayollarga bag'ishlab bunyod etilganidan darak berayotganday.

"Hazira-Modarixon" nomi maqbara majmuining bunyod qilinishi tarixini ochib beradi. "Modari-xon" o'zbek tilida "Xonning onasi" ma'nosini anglatadi. Ushbu tarixiy obida Qo'qon shahrining diqqatga sazovor joylaridan biri bo'lib, u 1825-yili qurib bitkazilgan ayollar uchun mo'ljallangan dafn etish joyi bo'lib xizmat qilgan. Maqbara buyuk shoira Nodirabegim buyrug'iga binoan uning turmush o'rtog'i Qo'qon xoni Umarxonning onasi dafn etilgan joyda barpo etilgan. Kelgusida esa maqbara xon avlodidan bo'lgan barcha ayollarni dafn etish joyi bo'lib qolgan.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki Islom dini qabrlar atrofini tosh yoki g'isht bilan o'rash, yodgorlik qurish, musulmonlarni qabr tepasida ibodat qilishini yoqlamaydi. Lekin Farg'ona vodiysida qadimdan an'analarga binoan qabrlar atrofida turli xil murakkab me'moriy majmualar "Hazira"lar qurish rivojlangan. Bunday majmualar asosi atrofi to'siqlar bilan o'raglan qabr bo'lib, bevosita yaqin joyga xotirlash uchun masjid-ziyoratxonalar qurilgan. Haziralar Islom dinining me'moriy usullarga ko'rsatgan ta'sirini yaqqol namoyon qilib turadigan o'rta asrlar me'moriy obidalariga misol bo'la oladi.

Xudoyorxon tomonidan 1873-yilda qurilgan O'rda yaxshi saqlangan. Bu binoni "Xudoyorxon saroyi", deb ham ataydilar. Saroyning umumiy maydoni - 4 gektar, uning poydevori 3 metr balandlikka ko'tarilgan. Shu sababli ham saroyga bosh darvoza orqali kirish uchun sharqiy tomondan maxsus yo'l qurilgan. Darvozaxonaning ustki qismiga arab harflari bilan "Buyuk Sayid Muhammad Xudoyorxon", deb yozib qo'yilgan. Saroy qurib bitkazilganida, uning uzunligi 138 metr, kengligi 65 metrni tashkil etgan edi. Saroy 7 ta hovli va 119 ta xonadan iborat bo'lgan. O'sha paytda o'rda ichki va tashqi devorlar bilan o'rab olingandi. Devorlar saqlanib qolmagan, bizgacha faqat ikkita hovli va 19 ta xona etib kelgan, xolos. Bugun bu erda Qo'qon o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Sharqda, yangi hukmdor yangi pul deyiladi.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

Shuni aytish mumki yangi hukmdor - yangi saroy. Qo'qonning qo'zg'alon tarixida, bugungi kungacha omon qolgan Xudoyorxon saroyi hukmdorlarning yettinchi qarorgohi edi va bunga faqat bir yarim asr bo'ldi.

Kamol qozi madrasasi - Qo'qondagi me'moriy yodgorlik, XIX asrga tegishli. Kamol qozi madrasasining binosi darsxona, ayvonli masjid, hovli va kichik hujralardan iborat. Darvozaxona serhasham bo'lib, Xudoyorxon o'rdasida bo'lgani kabi bu binoda ham faqat kirish qismi (sirti) zeb berib ishlangan. Peshtoq tepasi rangbarang naqshlar bilan qoplangan bo'lib, handasiy shakllar arabiy bitiklar bilan uyg'unlashib ketgan. Peshtoqining ikki yonidagi ustun go'shalar yuqorisi bezakli kafasa bilan yakunlangan. Darvozaxona ikki qavatli. Ustki qavatdagi darsxona oldi peshayvonli bo'lib, panjara bilan to'silgan. Tomi 4 qirrali-chortark gumbaz bilan qoplangan. Hovli atrofiga masjid va hujralar qurilgan. Masjid 4 ustunli, sharq tomoni ochiq, to'sin tashlab qurilgan ayvoni bor. Uning ichki tomoni ganch bilan ishlangan. Sirti suvoqsiz. Kamol qozi madrasasi me'morligida qo'qonlik xalq ustalarining an'analari o'z ifodasini topgan. Madrasa ta'mir qilinib, undan mehmonxona sifatida foydalanilmoqda.

Sayyid Ahmadxonxo'ja madrasasi 1907-yilda boshlanib, 1909-yilda qurib bitkazilgan. Memori ma'lum emas. 18 ta hujra va 2 ayvonli masjiddan tashkil topgan. Madrasa tarhi 42,3X44,0 m. Hovli (31,6x28,4 m) shim.sharqiy va jan. tomondan hujralar bilan, g'arbdan qo'sh sinchli, oldi ayvonli masjid bilan o'ralgan. Hovli o'rtasidan eni 1,5 m ariq o'tgan. Ariq yaqinida kekxa chinor qad ko'targan. Madrasa tashqi tomondan tekis bo'lsada, lekin hovli tomondan qurilgan kungurador devorlar bilan ajratib ishlangan qator mehrobli ravoqlar hujralarni yanada salobatliroq ko'rsatadi. Xonaqoh (14x7 m) tutash harilar bilan yopilgan, shifti qizil va yashil chiziqlar bilan ajratilib, orasiga gullar va chirmashgan novdalar tasviri ishlangan. Toqi va to'sinlardagi gul naqshlar maydaroq, xona devori ganchdan zanjira hamda "qirma" uslubidagi araqi sarrov bilan bezatilgan. Bino pishiq g'ishtdan qurilgan, lekin ustalar mahalliy seysmik sharoitlarni hisobga olib, masjid devorlarini ikki qatorli qo'sh sinch bilan mustahkamlaganlar. Bu masjidning ayvon va shiftlariga sidirg'a gullar solingan, bezaklari va uslublari turlicha bo'lgan bunday obida Farg'ona vodiysida juda kam uchraydi.

Hokim oyim madrasasi - Qo'qon shahrining katta bozori yonida bunyod etilgan. Xudoyorxon madrasaga mulla Turdiali mirzoni ishboshi qilib tayinlagan. O'sha yili unga katta mulk vaqf sifatida berilgan. Vaqfnoma hujjatida Xudoyorxonning ikkita muhri va o'sha davr qozilarining muhrlari bosilgan. Hokimoyim madrasasiga 1874-yilda Qo'qon shahrining Yaxshilik mahallasida joylashgan karvonsaroy va 56 do'konni vaqf qilib berilgan. Shu bilan birga madrasaga, Marg'ilon viloyatining Xonobod, Telemen, Iso Avliyo cheki, Tojiqishloq, Qang'li, Jomagoy yo'li qishloqlarida 20 ming tanobga yaqin ekilmaydigan yerni vaqf qilib bergan. Hokimoyim madrasasining vaqf mulklaridan tushgan yillik daromadi 1000 tilla atrofida bo'lgan. 1877-yilda madrasa mutavallisi barcha vaqf mulklarini 1090 tillaga ijaraga bergan. Daromadning bir qismini madrasa binosini ta'miri uchun olib qolib, qolgan qismini mudarrislar, xodimlar va mullalarga, vaqfnomada ko'rsatilgan me'yorda taqsimlab bergan. 1879-1880-yillarda barcha vaqf mulklari 1000 tillaga, 1881-yilda shahardagi karvonsaroy va do'konlarni 505 tillaga, qishloqlardagi vaqf yerlari 405 tillaga ijaraga berilgan. Shaharda joylashgan savdo-sanoat vaqf mulklari, karvonsaroy, do'konlar, tegirmon, hammom kabilar madrasalarga vaqf yerlariga nisbatan katta daromad keltirgan. 1877-yilda vaqf mulklaridan 1090 tilla daromad qilingan. 1877-1881-yillarda vaqf mulklaridan kelgan daromad deyarli o'zgarmagan.

Hokimoyim madrasasi Qo'qondagi eng katta madrasalardan bo'lib, 2 darsxona, 105 hujradan iborat bo'lgan. Ba'zi manbalarda yozilishicha, Xudoyorxon Ho'qandda bir madrasa qurdirib, onasi sharafiga Hokimoyim deb nomlagan. Yaxshi xazina sarf qilmaganidan madrasa imorati yorilgan. Xudoyorxonning ukasi Marg'ilon hokimi Sulton Murodbek ushbu madrasani qayta qurdirgan.

Xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, Farg'ona vodiysining eng qadimiy shaharlaridan biri – Qo'qon shahri o'zining boy tarixi, noyob me'moriy yodgorliklari bilan mashhur. Bu yodgorliklarning aksariyati Qo'qon xonligi davrida barpo etilgan. Bu inshootlarning aksariyati bugungi kunga qadar yetib kelgan va davlat muhofazasida.





**MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS**

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov Y. Jannat bog'i. - Farg'ona, 1995. - 101 bet.
2. Ibrat. Farg'ona tarixi. - Toshkent, 2005. - 183 bet.
3. Sultonov F., Bozorboyev F. O'ZBEKISTON HUKMDORLARI. - Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Alimov I. Qo'qon xonligi madrasa va maktablari tarixi. - Toshkent; Fan, 2017. - 303 bet.
5. Muhammad Aziz Marg'iloniy. Tarixi Aziziy. - Toshkent: Ma'naviyat, 1999. - 15 bet.
6. Abdulahatov N. Marg'ilon hokimi Sulton Murodbek. / Farg'ona vodiysi tarixi yangi tadqiqotlarda. - Farg'ona, 2019. - 189 bet.

